

**AYOLLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI:
TARIXGA BIR NAZAR**

M.D.Kazakova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng ayollar huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilgan islohotlar, xalqaro me'yoriy hujjatlar bilan integratsiya jarayonlari, gender tenglikni ta'minlashga doir siyosiy va huquqiy choralar tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik yillarda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi, siyosat va boshqaruvdagi faolligi ortib borayotgani tarixiy hujjatlar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, mustaqillik, ayollar huquqlari, gender tenglik, davlat siyosati, xalqaro hujjatlar, ijtimoiy himoya, ayollar harakati, qonunchilik, nodavlat tashkilotlar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvtizimi, vazirlik va idoralari hamda jamoat tashkilotlari tomonidan xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va siyosiy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash borasida zamon talablari asosida muhim qonunlar, qarorlar va farmonlar qabul qilindi hamda ularning ijrosi izchil amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan 1991-yildan buyon hozirga qadar 60 dan ortiq inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro hujjat, deklaratsiya va shartnomalarga qo'shilgan bo'lib, ularning 23 tasi bevosita xotin-qizlar manfaatini himoya qilishga qaratilgandir¹. Ushbu xalqaro me'yor, konvensiya, deklaratsiya va shartnomalarning milliy qonunchilikda joriy etilishi ayollarga bo'lgan e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, gender tengligi asosida shakllantirilgan va boshqariladigan siyosat jamiyat fuqarolarining manfaatlarini to'liq ifodalash imkonini beradi. Shu bois, O'zbekistonda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot, maishiy-madaniy hayot hamda davlat boshqaruvi tizimida ayollarning to'laqonli ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Zero, bu sohada taniqli mutaxassis, xorijlik olim Y.Giddens ta'kidlaganidek: "Gender – bu erkak va ayol o'rtasidagi jismoniy farq yemas, balki erkak va ayolga xos jihatlarning ijtimoiy shakllanishidir"².

Istiqlol arafasida O'zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyundagi II sessiyasida qabul qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi"da xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlar va demokratiya tamoyillariga asoslangan mustaqil davlat tuzish

¹ Толибоева Н.О. Хотин-қизларга оид давлат сиёсатининг трансформациялашув жараёнлари // Ўтмишга назар. – Тошкент, 2021.– №. 2. – С.139.

² Лушников А.М., Лушникова М.В., Тарусина Н.Н. Гендер в законе. – Москва: Проспект. 2014.– С. 22.

vazifasi belgilandi³. Sessiya ishida O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash, xotin-qizlar ishlari, onalik va bolalikni muhofaza qilish doimiy komissiyasi raisi, deputat X.M.Usmanova o‘z ma’ruzasi bilan ishtirok etdi.

Uning ma’ruzasida O‘zbekiston SSR ayollarining ahvoli, ularning yaxshi turmush kechirishi va yosh avlod tarbiyasida faol ishtiroki masalasi har qanday jamiyatning asosiy masalasi ekanligi ta’kidlangandi⁴. Darhaqiqat, har qanday jamiyat taraqqiyoti va uning kelajagi ko‘p jihatdan ayollar masalasining to‘g‘ri hal etilishiga bog‘liqdir. Afsuski, 1990-yillar boshidagi ijtimoiy hayotda ayollarning holati murakkab va og‘riqli bo‘lgan. Ayniqsa, mamlakat aholisining uchdan ikki qismini tashkil etuvchi xotin-qizlar va yoshlar ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar girdobida qolib, davlatning zarur g‘amx o‘rligi hamda huquqiy himoyasidan deyarli chetda qolgan edi.

1991-yil fevraldagagi Oliy Kengashning IV sessiyasida O‘zbekistonda tadbirkorlik va jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi qonun loyihalari doirasida xotin-qizlar manfaatlari ham inobatga olinishi alohida belgilandi. Bunga qo‘srimcha tarzda sog‘liqni saqlash, xotin-qizlar ishlari, onalik va bolalikni muhofaza qilish qo‘mitasi majlisida xotin-qizlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish borasida bir qator taklif va mulohazalar bildirildi⁵. Ayollar faolligini oshirish, gender tenglik, ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonliklarni bartaraf etish bilan shug‘ullanuvchi alohida tashkilot tuzish zarurati esa eng asosiy masala sifatida ilgari surildi.

Bildirilgan taklif va mulohazalar samarasi o‘laroq, 1991-yilning 25-fevralida bo‘lib o‘tgan Xotin-qizlar kengashining navbatdan tashqari II Plenumida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi ilk tashkilotlardan biri – O‘zbekistan SSR Xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil topdi⁶. 1987-yilda tasdiqlangan dastlabki qonun loyihasidan farqli ravishda O‘zbekiston SSR “Jamoat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun asosida 1991-yildan O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasining maqsad-vazifalaridan kelib chiqib, ularni bevosita jamoat birlashmasi sifatida e’tirof etish belgilandi⁷. Shu bilan xotin-qizlar masalalari dolzarbliliqi yanada ortdi. 1991-yil 21-iyunda birinchi nodavlat notijorat tashkilot – O‘zbekiston ishbilarmon ayollar “Tadbirkor ayol” assotsiatsiyasi adliya idoralaridan ro‘yxatdan o‘tkazildi⁸.

Shu o‘rinda xotin-qizlar huquqlarini zamонавиy holatda himoya qilishga qaratilgan xalqaro tadbirlarga fikrni qaratsak.

Ayollar ahvoli bo‘yicha birinchi Butunjahon konferensiya 1975-yil Mexiko (Meksika)da “Xalqaro ayollar yili” doirasida tashkil qilingan bo‘lib, unda 10 yilga mo‘ljallangan tenglik,

³ Мустақиллик декларацияси // Совет Ўзбекистони. 1990 йил 22 июнь.

⁴ “Хотин-кизлар ахволини яхшилаш, оналиқ ва болаликни муҳофаза қилиш, оилани мустақамлашга доир кечикириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарор ҳақида депутат X.M.Usmanova маъруzasи // Совет Ўзбекистони. 1990 йил 22 июнь.

⁵ Толибоева Н.О. Хотин-кизларга оид давлат сиёсатининг трансформациялашув жараёнлари // Ўтмишга назар. – Тошкент, 2021. – №. 2. – Б.140.

⁶ Ўзбекистон аёллар нодавлат нотижорат ташкilotlari. Маълумотнома / Тузувчилар: Асминкин Я.П., Немировская О.Ю., Сайдикромова Т.Ж., Середа М.В. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б.8.

⁷ “Ўзбекистон ССР да Жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Конун // Халқ сўзи. 1991 йил 26 февраль.

⁸ Ўзбекистон аёллар нодавлат нотижорат ташкilotlari. Маълумотнома / Тузувчилар: Асминкин Я.П., Немировская О.Ю., Сайдикромова Т.Ж., Середа М.В. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б.8.

taraqqiyot va tinchlik dasturi⁹, 1980-yil Kopengagen (Daniya)da o'tkazilgan Ikkinchи Butunjahon ayollar konferensiyasida ta'lim, ayollar bandligi masalasi va sog'liqni saqlash masalalarida¹⁰, shuningdek, 1985-yil Uchinchi Butunjahon ayollarning Nayrobi (Keniya) konferensiyasida ayollar huquqi, saylovlarda va boshqaruv ishlariда ishtiroki, shuningdek, ijtimoiy tenglik masalasi asosiy masala sifatida ko'tarilib, bu yo'naliishlarda qator dasturlar qabul qilindi¹¹. Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ayollar huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lida qator xalqaro konferensiylar dasturlari va xalqaro shartnomalarga muvofiq milliy huquqiy tizim ishlab chiqila boshlandi. Ayniqsa, tadbirkorlik va qishloq xo'jaliqgi sohalarida xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash uchun amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq Sovet hokimiyati so'nggi yillarida ayollarga bo'lgan munosabat va ularning manfaatlarini himoya qilish borasidagi siyosat jahondagi ilg'or tajribalardan ancha orqada edi. Xususan, ayollarning og'ir jismoniy mehnatga keng jalb etilishi, ayniqsa, qishloq xo'jaligida ularning salomatligi va ijtimoiy faolligini e'tiborsiz qoldirgan holatlar tarixiy haqiqat sifatida ko'zga tashlanadi.

Milliy ishonchni qozonish uchun esa, eng avvalo, ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish, onalar huquqlarini kafolatlash, kasb-hunar egallash sohasida, jamiyat va shaxsiy turmushda xotin-qizlar iqtidorini namoyish yetish uchun shart-sharoit yaratish zarurat bo'lgandi¹². Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish davri boshlarida xotin-qizlar manfaatlariga qaratilgan e'tibor mustaqillik tomon o'ziga xos qadamlardan biri desak xato bo'lmaydi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida O'zbekiston jamiyatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida tub burilishlar yuz berdi. Gender tengligini ta'minlash, ayollarni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash maqsadida muhim qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari qabul qilinib, amaliy hayotga tadbiq etildi. Bu borada Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyati, xalqaro me'yorlarga mos ravishda ishlab chiqilgan huquqiy asoslar va ayollar uchun yaratilgan iqtisodiy imkoniyatlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Shu bilan birga, tarixiy tajriba shuni ko'rsatdiki, ayollar masalasi faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham kompleks yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, mustaqillikdan oldingi davrda xotin-qizlarga nisbatan olib borilgan siyosatdagi kamchiliklar, ularning og'ir jismoniy mehnatga majburan jalb etilishi va ijtimoiy himoyaning yetishmasligi bugungi islohotlarning tarixiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu yo'naliishdagi islohotlar davomiyligi va uzviyligi esa mamlakat taraqqiyotining muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

⁹ Ломакина М.В. Международная защита прав женщин // Московский журнал международного права. – 2021. – №. 3. – С. 37-45.

¹⁰ Шведова Н.А. Отмечая юбилей: вопросы гендерного равенства в приоритетах ООН // Женщина в российском обществе. – 2020. – №. 3. – С. 18.

¹¹ Заблоцкая В.В., Коротич Е.А. Универсальная система международной защиты прав женщин // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D, Экономические и юридические науки. – 2011. – С.140.

¹² Байрамингиз кутлуг бўлсин, азиз хотин-қизлар // Халқ сўзи. 1991 йил 8 март.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мустақиллик деклорацияси // Совет Ўзбекистони. 1990 йил 22 июнь.
2. “Хотин-қизлар аҳволини яхшилаш, оналиқ ва болалаликни муҳофаза қилиш, оиласи мустаҳкамлашга доир кечикириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарор ҳақида депутат Х.М.Усмонова маъruzаси // Совет Ўзбекистони. 1990 йил 22 июнь.
3. “Ўзбекистон ССР да Жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги қонун // Халқ сўзи. 1991 йил 26 февраль.
4. Байрамингиз кутлуғ бўлсин, азиз хотин-қизлар // Халқ сўзи. 1991 йил 8 март.
5. Ўзбекистон аёллар нодавлат нотижорат ташкилотлари. Маълумотнома / Тузувчилар: Асминкин Я.П., Немировская О.Ю., Сайдикромова Т.Ж., Середа М.В. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б.8.
6. Заблоцкая В.В., Коротич Е.А. Универсальная система международной защиты прав женщин // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D, Экономические и юридические науки. – 2011. – С.140.
7. Лушников А.М., Лушникова М.В., Тарусина Н.Н. Гендер в законе. – Москва: Проспект. 2014. – С. 22.
8. Шведова Н.А. Отмечая юбилей: вопросы гендерного равенства в приоритетах ООН // Женщина в российском обществе. – 2020. – №. 3. – С. 18.
9. Толибоева Н.О. Хотин-қизларга оид давлат сиёсатининг трансформациялашув жараёнлари // Ўтмишга назар. –Тошкент,2021. – №. 2. – С.139.
10. Ломакина М.В. Международная защита прав женщин // Московский журнал международного права. – 2021. – №. 3. – С. 37-45.